

**TOSHKENT KIMYO
TEKNOLOGIYA INSTITUTI
XOTIN –QIZLAR
KENGASHINING FAOLIYATI**



TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI
AYOLLARI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT



Bugungi kunda institutimizda mehnat qilayotgan xodimlarning **49 % ayollar** tashkil etadi.

Shundan:

- ✓ 3 nafar fan doktorlari, ya'ni professor;
- ✓ 47 nafar fan nomzodlari, ya'ni dotsent;
- 134 nafar professor-o'qituvchilar

Ilmiy salohiyati


4 – professor

47 - dotsent

84- fan nomzodlari



Talaba- qizlari to'g'risida ma'lumot



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 2- martdagi PF-5953-son Farmoniga muvofiq, xotin-qizlarning oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ular uchun ajratilgan alohida 4 foizli qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari mazkur yo‘nalishdagi yana bir muhim qadam bo‘ldi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida va ularni hayotda o‘z o‘rnini topib ketishi uchun 2021/2022 o‘quv yilida Respublika OTMLariga berilgan 4 foizlik davlat grant o‘rinlari ajratilgan edi. Shunday yaratilgan imkoniyatdan foydalangan yoshlarning 1 nafari Toshkent kimyo texnologiya institutining davlat granti asosida tahsil oladigan talabasiga aylandi.

Toshkent viloyati, Ohangaron shahri, Munchoqtepa mahallasida yashovchi MKTF, 53-20MT O‘ktamova Yulduzxon Raxmatxon qizi. — Bizga yaratilgan bunday imkoniyatdan boshimiz ko‘klarga yetdi. Kelajakda yaxshi o‘qib, kerakli bilimlarni egallab Yurtimiz rivoji uchun xissa qo‘shadigan kadr bo‘lib yetishishga va’da beraman – deydi talaba Yulduzxon O‘ktamova.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «XOTIN-
QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN
HIMOYA QILISH TO‘G‘RISIDA» 02.09.2019 YILDA
561-SON QONUNI QABUL QILINDI.

02.09.2019 yilda 561-son qonunning 3-moddasiga jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy zo‘ravonliklarni oldini olish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu qonunda belgilangan ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llanilishidan himoya qilish maqsadida -HIMOYA ORDERI belgilandi.

16 KUN " BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ SHIORI OSTIDA “ZO‘RAVONLIKSIZ OILA FAROVON HAYOT SARI”

Tadbir ochilishida Toshkent shaxar Shayxontoxur tumani“Oila va xotin-qizlar” bo‘limi boshlig‘i Z.Taxirova so‘zga chiqib mavzu yuzasidan ma‘lumot berdi. “O‘zbekistonda ayollarni qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi shuningdek davlat xodimlari bilan ma‘lum ijtimoiy muammolar, xususan, oiladagi zo‘ravonlik holatlari tarqalishi hamda gender stereotiplari bo‘yicha xabardorlik darajasini oshirishdan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

M.Yusufxodjayeva insitut jamoasiga himoya orderi berilishi haqida batafsil tushuntirib o‘tdilar, ya’ni ayollarga himoya orderi profilaktika inspektori tomonidan berilishi, Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar tomonidan himoya orderini olish tartibi hukumatning 4.01.2020 yildagi 3-son qarori bilan tasdiqlanganligi, uni olish uchun jabrlanganning murojaati, jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarleri, shu jumladan, OAV va yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan xabarlar, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlarining vakolatli organlari va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi; davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar asosida o‘rganilishi haqida asosli ma‘lumot va qonun hujjatlari haqida batafsil ma‘lumot berdilar. Shuningdek ushbu mavzuga oid videoroliklar namoyish qilindi



tkti.uz @tktiuz @tktiuz @tktiuz @tktiuz @tktiuzrasmiy @tktiuzrasmiy @tktiuzrasmiy @tktiuzrasmiy @tktiuzrasmiy @tktiuzrasmiy
YOQILG'I VA ORGANIK BIRIKMALAR KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI FAKULTETINING
FAOLLAR ZALIDA "BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ" MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI
BO‘LIB O‘TDI



Toshkent kimyo texnologiya instituti xotin-qizlar kengashi tomonidan xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'rovonlik, zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish hamda xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida "Gender tenglikni ta'minlash va barqaror rivojlanish" mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash vazirligining hududiy boshqarmalari bilan oilaviy ajrimlarni oldini olish yuzasidan hamkorlik o‘rnatildi.



**“11-OKTYABR – XALQARO QIZLAR KUNI” BAYRAMI MUNOSABATI
BILAN INSTITUT TALABA-QIZLAR O‘RTASIDA FAKULTETLARARO
SPORTNING VOLEYBOL VA STOL TENNIS TURLARI BO‘YICHA
MUSOBAQA O‘TKAZILDI.**



Institut xotin-qizlar kengashi raisi va mas'ullari tomonidan talaba-qizlar o'rtasida "Qizlar davrasi" ko'rik-tanlov o'tkazildi va g'oliblar sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



“Buvijonim kiygan liboslar”



Toshkent kimyo-texnologiya institutida har yili an'anaga kirgan “Buvijonim kiygan liboslar” ko'rik tanlovi tashkil etildi.

Beshta fakultet o'zaro buvijonim kiygan liboslar, ularning urf -odatlarini va muomula madaniyatlarini, badiiy chiqishlari bilan bellashdilar.

Mutaxassislar tomonidan, ularning har bir shart bo'yicha sahna chiqishlari baholab borildi.

Talaba qizlar buvijonlarining o'gitlarini, ularning boy meroslarini qadrlagan holatda o'z chiqishlari bilan kelgan mexmonlarni lol qoldirdilar.



"Oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish" shiori ostida " Erta turmush, qarindoshlar orasidagi nikohning salbiy oqibatlari" bo‘yicha

DAVRA SUHBATI

2022yil 27 yanvar



"Oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish" shiori ostida "Erta turmush, qarindoshlar orasidagi nikohning salbiy oqibatlari" mavzusida o‘tkazilayotgan davra suhbatini hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi haqida gapirib shunday jummalarni keltirdi: "Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oila hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, xalqimizning muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, kelajak avlod kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Asosiy qonunimizning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", deya belgilab qo‘yilgan. Mazkur tamoyil asosida mamlakatimizda oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, unga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish choralari ko‘rilmog‘da".

Toshkent shahar aholi reproduktiv salomatlik markazi mutahassisi Abdullaeva Gulshod Shonazarovna har bir oila mustahkam poydevorga ega bo‘lishiga erishishi, jamiyatda har bir go‘dakning sog‘lom tug‘ilishi va yashab ketishini to‘la kafolatlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratishga e’tibor qaratilishi haqida gapirib o‘tdi. Shuningdek, mutaxassislarning fikricha, yigit-qizlarning turmush qurish yoshi oila mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Afsuski, ayrim ota-onalar ko‘pincha farzandining kelajak taqdiri, baxt-saodati haqida o‘ylamay, hali balog‘at yoshiga yetmagan qizini uzatish yoki qarindoshimning qizi begona bo‘lmasin, deb o‘g‘il uylantirish taraddudiga tushadi. Buning oqibatida qizlarni o‘n olti, hatto undan kichik yoshda turmushga uzatib yuborish hollari uchraydi. Ammo bu ko‘p hollarda bo‘lg‘usi onaning salomatligi va ruhiyatiga, qolaversa, yosh oilaning mustahkamligi, tug‘ilajak farzandning sog‘lomligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

11-fevral — “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” munosabati bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutida “Kimyogar ayollar – 2022” Xalqaro ilmiy forumi bo’lib o’tdi.



**YOQILG'I VA ORGANIK BIRIKMALAR KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI FAKULTETI
3-BOSQICH TALABASI ABDULLAYEVA ZILOLA O'ZBEKISTON "MILLIY
TIKLANISH" PARTIYASI TOMONIDAN O'TKAZILGAN "XXI ASR AYOLI" KO'RIK
TANLOVIDA MUNOSIB ISHTIROK ETIB 4-O'RINI EGALLADI.**

